

# ILM FAN XABARNOMASI

## Ilmiy elektron jurnali

“RAVSHAN” DOSTONIDA QO’LLANILGAN REALIYALAR VA ULARNING  
TAHLILI

Raimov Olimjon

Ergashev Orif

Ro‘zimahmadov Komron

Soatmurodova Sayyora

DTPI talabalari

E-mail: [olimjonraimov88@gmail.com](mailto:olimjonraimov88@gmail.com)

Tel: 99 777 90 17

**Annotatsiya:** Ushbu maqolaning asosiy maqsadi mamlakatlarning o‘ziga xosligini bildirib turuvchi xos so‘zlar va so‘z birikmalari ya’ni realiyalarni “Ravshan” dostonida qanday qo’llanishi haqida ma’lumot berish va ularning tahlili haqida.

**Annotation :** The main purpose of this article is to provide information about the use of specific words and phrases that express the uniqueness of countries, i.e. realities, in the epic “Ravshan” and their analysis.

**Аннотация :** Основной целью данной статьи является предоставление информации об использовании конкретных слов и словосочетаний, выражающих уникальность стран, т.е. реалий, в эпосе «Равшан» и их анализе.

**Kalit so‘zlar:** to ‘n, ko ‘pkari, ko ‘shk, realiya, uloq, quda.

### KIRISH

**Realiya** - so’zi lotinchadan olingan bo’lib “ashyoviy, haqiqiy” degan ma’nolarni anglatadi. Realiyalar –u yoki bu xalqning tarixi, ma’daniyati, maishiy hayoti yoki yashash davriga xos predmet, tushuncha va voqealari ifodalovchi xos so‘zlar. Realiyalar so‘z birikmalar, maqol, matal ham bo’lishi mumkun. Realiyalarning muhim xususiyati ular ifodalaydigan predmetning mohiyatidan kelib chiqadi. Realiyalar bir vaqtning o’zida ham tarixiy ham milliy bo’yoqqa ega bo’ladi. Realiyalarning muayyan koloritni aks ettirish xususiyatlari to’g’risida XX asrning 50- yillarda tilshunoslar baxs yurita boshladi. Mavjud ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilish natijasida realiyalarga baho berish bo’yicha bu borada ikki xil qarash borligini ko’rishimiz mumkin.

**-tarjima nuqtai nazaridan qarash**

**-mamlakatshunoslik asosida yondashish**

rus olimasi L.N. Sobolevning fikriga ko’ra “realiyalar-maxsus xususiyatga ega bo’lgan, bir tildan va boshqa mamlakatlardagi tillar muhitida boshqa ekvivalentlari bo’lmagan milliy so‘z va so‘z birikmalaridir”. Taniqli tarjimashunos olim V.M. Rosselsning ta’kidlashicha realiyalar – tarjima qilinayotgan tilga kirib kelgan va asliyat tilda muayyan, milliy, mahalliy narsa va predmet

## Ilmiy elektron jurnali

yoki tushunchalarning nomini ifodalaydigan so'zlardir. Realiyalar to'g'risida haqiqatga yaqin ta'rifni S.Vlaxova va S.Florinlar bergenlar .Unga ko'ra :’Realiyalar – muayyan bir xalqning hayoti, turmushi urf –odatlari, ma'daniyati, ijtimoiy taraqqiyotiga oid narsa, predmet, voqeа hodisalarni ifodalovchi so'z va so'z birikmalari bo'lib, ular milliy va davriy xususiyatga egadirlar. Realiyalarni tushunchasini aniqlashtirish uchun S.Vlaxov va S. Florinlar terminlarga murojaat qilishni tavsiya etadilar. Rus tarjimashunos olimi L. Sobolyev realiyalar tarjimasi borasida shunday deydi: ’Realiyalar tarjimasi borasida gapirganda ikki xususiyatga e'tibor berish kerak . 1.Realiyalar alohida tarjima qilinadi. 2.Realiyalar bir tildan boshqasiga o'girishda so'zma –so'z tarjima tamoyil ishlatib bo'lmaydi. “Realiyalar” yoki “xos so'zlar” tushunchasi ko'pincha tilshunoslik va falsafa sohalarida muhim mavzu hisoblanadi. Bu tushunchalar tilning qanday qilib aniq narsalarni, ya'ni “realiyalarni” ifodalashini tushuntiradi va turli madaniyatlar, hududlar va xalq an'analari bilan bog'liq. Mana shu mavzu haqida fikr yuritgan taniqli yozuvchi va olimlardan ba'zilari: Vladimir Dal – Dal rus tilining so'z boyligi, jumladan, xos so'zlar va dialektlar haqida ko'p ma'lumotlar bergan. U “Rus xalqining tirik xalq tili lug'ati” asarida rus tilidagi turli terminlar, shuningdek, mahalliy va xos so'zлarni o'rgangan.

Ferdinand de Sossyur – Tilshunoslikning strukturistik yondashuvi asoschisi sifatida tanilgan Sossyur tilni belgilar tizimi sifatida o'rgangan. U “Til umumiy nazariyasi” asarida xos so'zлarni semantika (ma'no) va tilshunoslik nuqtai nazaridan o'rganish imkoniyatlarini yaratgan. Lev Shcherba – Rus tilshunos olimi bo'lib, u tilning dinamikasini va xos so'zлarning mazmunini tadqiq qilgan. Uning ishlari, ayniqsa, slavyan tillari va xos so'zлarni o'z ichiga olgan keng ma'nodagi tilshunoslik yondashuvida katta ahamiyatga ega. Roman Yakobson – Tilshunoslik va adabiyotshunoslik bo'yicha ko'plab ishlarni yaratgan Jakobson “realiya” tushunchasini, xususan, tilning poetik vazifalari va madaniy xos so'zлarni nazaridan o'rgangan.

### ASOSIY QISM.

Biz realiyalarni hikoyalarda, asarlarda, dostonlarda uchratishimiz mumkun. Biz Ravshan dostonida ham realiyalarni uchratishimiz mumkun. Ravshan dostoni folklorchi olim Hodi Zarif ( 1905-1972) tomonidan birinchi marta 1928- yilda Ergash Jumanbulbul o'g'li (1868-1937) og'zidan yozib olingan va 1941 -yilda nashr ettirilgan. Ergash shoir ‘‘Ravshanni’’ ni otasi Jumanbulbuldan ,u esa ustozи Kichik Bo'rondan o'rgangan. Dostonning sayqal topib, badiiy go'zal asar shaklini olishda Jumanbulbul va Ergash baxshilarning alohida xizmati bor. Ravshan dostoni qofiyali nasr (saj)ning go'zal namunasidir. Deyarli har bir nasriy parcha -qofiyali. Dostonning vazni ham o'ziga xos. She'riy qismi asosan yetti, sakkiz va o'n bir bo'g'inli barmoq vaznida. Baxshi qahramonning ruhiy holati, his hayajoni, voqeа rivojining sur'atiga ohangdosh ,ayni shu holatga mos tasvir yo'sinini topadi. Biz Ravshan dostonida ham realiyalarini ko'rishimiz mumkun. Ular ko'shk, quda ko'pkari, to'n so'zlaridir. L.Ko'shk-dalahovli, shahar tashqarisidagi qasr 2.Quda-bir necha qiz uylantirib ,qiz chiqarib, ko'p oilalar bilan quda-andalik munosabatlarini o'rnatgan. 3.Ko'pkari-ulоq ya'ni milliy o'yin turlaridan biridir. 4.To'n-oldi ochiq ,paxtali yoki paxtasiz uzun ustki milliy kiyim ;chopon .Kimxob to'n .Olacha to'n. Bu misoldan ko'rinib turibdiki o'zbek milliy kiyimlarining nomlarini boshqa tilga o'girish ancha ma'sulyat ,bilim ,mahorat ,mulohaza talab etadi. Lekin ayrim so'zлarni qanday ma'no anglatishini biz ham bilmasligimiz mumkun ,sababi bu so'zлarning arxaik so'zlarga aylanganligi va iste'moldan chiqib ketganidir. Masalan : bo'yra – to'n qamish cho'pidan yasalgan va hozirda bu kiyimni hech kim tika olamaydi va kiymaydi ham. Fyodorovning fikricha realiyalarni tarjima qilishda shu so'zлarning asliyat tilida tutgan o'mini va anglatgan ma'nosini bilish kerak. Bir tildan ikkinchi tilga so'zлarni tarjima qilish juda mashaqqatli ishdir .Bir biriga yaqin qarindosh tillarda tarjima qilish unchalik katta muammo tug'dirmasligi mumkun. Ammo uzoq tillar uchun bu o'ta

murakkab holdir. Bundan tashqari ,biz **to'nga** muqobil variyant qilib **robe** ni olishimiz mumkin. Ba'zi so'zlarni tarjima qilish juda mushkul ,bunga sabab bu so'zlarning arxaik so'z bo'lib iste'moldan chiqib ketganligidadir. Misol qilib '**ko'shk**' so'zini olishimiz mumkun.ko'shk so'zi hozirda ishlatilmaydigan arxaik so'zga aylangan . Shu sababli bu so'zni ingliz tiliga tarjima qilish biroz mushkulroq. Etimologik ma'lumotlar turkcha ko'shk "**pavilioni**" va fransuzcha kiosk yoki italyan chiosco orqali kelib chiqishi o'rta farscha ko'sk, saroy, portiko so'ziga ishora qiladi. Ko'shk so'zini ingliz tiliga "**pavilion**" deb tarjima qilishimiz mumkun. **Pavilion** – a summer house or other decorative building used as a shelter in a park or large garden. **Ko'pkari** -O'rta Osiyo xalqlarining qadimiy ommaviy, milliy o'yinlaridan biri. Asosan g'alaba va hosil bayramlari, to'y va sayillar munosabati bilan o'tkazilgan. Hukmdor va har xil amaldorlardan tashqari o'ziga to'q odamlar, hatto oddiy aholi ham uloq o'yinlarini tashkil etgan. **Uloq** -ko'pkari turkiy xalqlar ayniqsa, uning **qo'ng'irot, qurama, ming, mang'it, oyrat, yoyirma, kenegas, qipchoq, barlos,** kabi urug'lari orasida ommalashgan.

### XULOSA

Bu asarda realiyalarning qo'llanishidan asosiy maqsad asardagi joyning o'zigi xosligini ko'rsatib berishdan iboratdir. Va shuningdek asarni badiiy tasvir bilan boyitishdir. Realiyalar asarda ishlatilganda uni bir tildan boshqasiga o'girish ya'ni tarjima qilishda ba'zi muammolarga duch kelinadi. Masalan, asarda qo'llanilgan to'n so'zini oladigan bo'lsak, ingliz tilida yoki boshqa tillarda bu o'zbek tiliga xos so'z bo'lgan to'nning muqobilini topish bir muncha qiyinchilik tug'diradi, chunki asardagi so'z o'rnida boshqasini qo'llasakda bu so'zning o'zidek ma'noni saqlab qola olmaydi. Va shuning uchun asardagi yozuvchi o'y fikrlari hamda ichki kechinmalarini asarning o'quchchilariga yetkazib berishda yanglish tushuncha paydo qilishi mumkin. Shu sababli , bu kabi so'z birikmalarini tarjima qilishda mahoratli bo'lish talab etiladi. Yoki quda so'zini oladigan bo'lsak, ingliz tilida parents-in-law deb tarjima qilinadi bu yerda esa, aslidek ma'no saqlanib qolgan, va yozuvchi maqsad qilgan fikrni tarjimon o'quvchilarga yetkaza oladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jo'ramururodova,Z&Solij onov .J(2022 ,April) J.K ROULNING "BIDL QISSANAFIS ERTAKLARI" (THE TALES OF BEEDLE THE BARD) ASARIDAGI ANTROPONIMLARNING O'ZBEK TILIDAN INGLIZ TILIGA TARJIMA QILISHDAGI MUAMMOLAR
2. .Kamoljonovich,S.J (2022) J.K ROULNING FANTASTIK ASARIDAGI ANTROPONIMLARNING LINGVO -PERSPEKTIVE MUAMMOLARI.
3. Saidov, S. (2021). Ibn al-Muqaffanining islom tarjima san'atiga qo'shgan hissasi. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 7(1).
4. Sodiqova Salima Zohidovna "Badiiy asarlarda realiyalar tarjimasi"
5. "Ravshan" dostoni